

AYOLLAR JINOYATCHILIGI DINAMIKASI VA TARKIBIY TAHLILI

(Xorazm viloyati misolida)

Matyozov Shodlikbek Ozodovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika

fakulteti boshlig‘i o‘rinbosari.

E-mail: shodlikozodovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning holati va tendensiyalari kriminologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ayollar o‘rtasida keng tarqalgan qo‘shmachilik, firibgarlik, tovlamachilik va odam savdosi kabi jinoyat turlarining sabablari, ularning sodir etilish usullari hamda ayblanuvchilarning ijtimoiy-demografik qiyofasi o‘rganilgan, shuningdek, jinoyatlarning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi asosiy determinantlar, xususan, bandlik muammosi va moddiy manfaatdorlik omillari yoritib berilgan. Maqola yakunida hududda xotin-qizlar jinoyatchiligining oldini olish va ijtimoiy rehabilitatsiya tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm viloyati, xotin-qizlar jinoyatchiligi, kriminologik tahlil, firibgarlik, qo‘shmachilik, profilaktika, ijtimoiy rehabilitatsiya, jinoyat sabablari.

ДИНАМИКА И СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

(На примере Хорезмской области)

Аннотация: В данной статье представлен комплексный криминологический анализ состояния и динамики женской преступности в Хорезмской области. На основе статистических данных исследуются структурные особенности преступлений, совершаемых женщинами, среди которых преобладают

мошенничество, содержание притонов, вымогательство и торговля людьми. Особое внимание уделено социально-демографическому портрету правонарушительниц, их возрастным категориям и уровню занятости. Автор анализирует основные детерминанты преступного поведения, такие как стремление к «легкой наживе» и отсутствие социально полезного труда. В заключении сформулированы научно-практические рекомендации по совершенствованию мер ранней профилактики и социальной реабилитации женщин в регионе.

Ключевые слова: Хорезмская область, женская преступность, криминологический анализ, мошенничество, содержание притонов, социальная детерминация, профилактика преступности, социальная реабилитация.

DYNAMICS AND STRUCTURAL ANALYSIS OF WOMEN'S CRIME

(On the example of Khorezm region)

Abstract. This article provides a comprehensive criminological analysis of the state and dynamics of female criminality in the Khorezm region. Drawing on statistical data, the study examines the structural characteristics of crimes committed by women, with a prevalence of fraud, pimping, extortion, and human trafficking. Special attention is paid to the socio-demographic profile of female offenders, including their age categories and employment status. The author analyzes the primary determinants of criminal behavior, such as the desire for "easy money" and the lack of socially useful labor. The article concludes with the formulation of scientific and practical recommendations for improving early prevention measures and the social rehabilitation of women in the region.

Keywords: Khorezm region, female criminality, criminological analysis, fraud, pimping, social determination, crime prevention, social rehabilitation.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta‘minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ayollar huquqlarini himoya qilish bilan bir qatorda, ayollar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlarning holatlarini o‘rganish

va ularning oldini olish masalasi ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan kompleks hujjatlar ayollar huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ular nafaqat huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, balki zo‘ravonlikning oldini olish, erta nikohlarning kamayishi, jabrlanuvchilarga tezkor yordam ko‘rsatish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi PF-33-son Farmoni ayollar huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur Farmon doirasida ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli himoya vositalarini joriy etish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy choralar belgilangan. Chunki jinoyatchilikning ushbu turi nafaqat huquqiy tizimga, balki ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy omillarga ham bevosita bog‘liq murakkab hodisa hisoblanadi. Ayollar jinoyatchiligi ko‘pincha ijtimoiy muammolar, oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi hamda ba’zi hollarda zo‘ravonlik va tazyiq kabi omillar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Shu sababli ushbu toifadagi jinoyatchilikni faqat huquqiy javobgarlik nuqtayi nazaridan emas, balki kompleks ijtimoiy-huquqiy yondashuv asosida o‘rganish zarur hisoblanadi. Bu esa profilaktika tizimini kuchaytirish, reabilitatsiya mexanizmlarini rivojlantirish va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishni talab etadi. Hududiy kesimda bu masalani o‘rganish, xususan, Xorazm viloyati misolida ayollar huquqlarini himoya qilish va ayollar ishtirokidagi jinoyatchilik holatlarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Viloyatda mavjud ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, mahalla instituti faoliyati hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ish samaradorligi ushbu jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xorazm viloyati misolida ayollar huquqlarini himoya qilish tizimi va ayollar jinoyatchiligi holatini chuqur hamda kompleks tahlil etish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish, shuningdek, mazkur sohada samarali huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi davrda ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, u o'ziga xos sifat va daraja ko'rsatkichlariga, shuningdek shaxsga doir o'ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarga ega hisoblanadi. Kriminologik jihatdan qaralganda, ayollar va erkaklar agressiv xulq-atvorida sezilarli farqlar mavjud. Ayollar odatda, erkaklarga nisbatan kamroq jinoyat sodir etadilar. Xorazm viloyatida ayollar jinoyatchiligining kriminologik tahliliga ko'ra: 2026-yilning birinchi choragi davomida Xorazm viloyati IIB huzuridagi tergov bo'linmalari tomonidan ayollar tomonidan sodir etilgan jami 39 ta jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va surishtiruv harakatlari olib borilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich hududda xotin-qizlar jinoyatchiligining tarkibi, dinamikasi va kriminogen xususiyatlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, ayollar tomonidan sodir etilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishlar tarkibida bir necha turdagi jinoyatlar sodir etilganligi namoyon bo'ladi. Xususan, axloqqa qarshi jinoyatlar, ya'ni qo'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash (JK 131-modda) eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Urganch shahri va viloyatning boshqa tumanlarida o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida o'ndan ortiq shunday holatlar aniqlangan bo'lib, ushbu jinoyatlarning aksariyati moddiy manfaatdorlik evaziga qo'shmachilik qilish, mulkiy firibgarlik jinoyatlari (JK 168-modda) ham salmoqli o'rinni egallaydi. Mazkur yo'nalishda shaxsning ishonchini suiiste'mol qilish orqali juda ko'p miqdordagi mablag'larni o'zlashtirish holatlari xavotirlidir. Misol tariqasida, Shovot tumanida D.Rning 13 nafar fuqaroni aldash yo'li bilan jami 1 mlrd 360 mln so'm mablag'ini o'zlashtirgani shuningdek, Gurlan tumanida D.A tomonidan 238 mln so'mdan ortiq qiymatdagi zargarlik buyumlarining firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritilganini keltirish mumkin. Bundan tashqari, shaxsning sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarini oshkor qilish bilan qo'rqitib, katta miqdorda pul talab qilish, ya'ni tovlamachilik (JK 165-modda) holatlari ham Yangibozor va Urganch tumanlarida qayd etilgan. Jinoyatlarning geografik taqsimoti bo'yicha Urganch shahri, Urganch va Shovot tumanlari eng yuqori kriminogen ko'rsatkichlarga ega hududlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Jinoyat subyektlarning yosh xususiyatlariga to'xtalganda, jinoyat sodir qilganlar tarkibida 2007-yilda tug'ilgan shaxslardan tortib, 1969-yilda tug'ilgan ayollar

ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jinoyatlarning sodir etilish determinantlari tahlil qilinganda, asosiy motiv sifatida “yengil daromad topish” va “bo‘ylik orttirish”ga bo‘lgan g‘ayriqonuniy intilishlar ustuvorlik qilishi, aksariyat hollarda ayblanuvchilarning muqaddam hech qanday ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi. O‘tkazilgan tergov natijalariga ko‘ra, aksariyat jinoyat ishlari Jinoyat-protsessual kodeksining 381-moddasi tartibida yakunlanib, sud muhokamasiga yuborilgan. Tahlil yakunlari hududda xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun profilaktik tadbirlarni va ijtimoiy-huquqiy choralarni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ilmiy yondashuv. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayollar jinoyatchiligi tuzilishida asosan iqtisodiy yo‘nalishdagi jinoyatlar, o‘g‘irlik, tovlamachilik, bezorilik, giyohvand moddalar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar kabi umumiy jinoyatlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ayollar tomonidan sodir etiladigan og‘ir jinoyatlar ham uchrab turadi. Jumladan, qasddan odam o‘ldirish yoki tan jarohati yetkazish holatlari ko‘pincha oilaviy nizolar, spirtli ichimliklar ta’siri, shuningdek jabrlanuvchining provokatsion xatti-harakatlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – ularning jinoyatni ko‘p hollarda yakka tartibda sodir etishidir. Bu esa erkaklar jinoyatchiligiga nisbatan muhim farqlovchi belgilardan biri hisoblanadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda voyaga yetmagan qizlar o‘rtasida jinoyatchilik holatlari ham kuzatilmoqda. Erta jinsiy munosabatlarning boshlanishi o‘smirlar, xususan qiz bolalar xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatib, oilaviy muhitda turli ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarish holatlariga olib keladi.

Hozirgi kunda ayollar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: jinoyatchilikning professionallashuvi va muayyan darajada tashkillashuvi; og‘ir jinoyatlar ulushining ortishi; jinoyat sodir etish yoshining pasayishi; qasos olish yoki shaxsiy adovat sababli jinoyat sodir etish holatlari; shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik, tilanchilik va suidsid kabi salbiy ijtimoiy illatlar bilan bog‘liq omillar.

Ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablarini hisobga olgan holda, uning oldini olishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada xotin-

qizlarni bandlik bilan ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va dam olish sharoitlarini yaratish, ijtimoiy himoya kafolatlarini kuchaytirish hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish kabi choralar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ular o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish masalasida xalqaro huquqiy hujjatlar muhim o'rin tutadi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish to'g'risida"gi deklaratsiya ayollarning huquqiy maqomini mustahkamlashda asosiy xalqaro mezonlardan hisoblanadi. Ushbu normalar milliy qonunchilikda ham o'z ifodasini topgan.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish jarayonida ularni ikkita asosiy yo'nalishga – mikroijtimoiy va makroijtimoiy omillarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu omillar ayol shaxsining huquqbuzarlik yo'liga kirib qolishida determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Mikroijtimoiy omillar:

1. Oilaviy va maishiy muhit ta'siri.
2. Psixologik bosim va ijtimoiy mas'uliyat.
3. Oiladagi ma'naviy muhit.
4. Ichki migratsiya va uy-joy muammosi:

Makroijtimoiy omillar:

1. Jamiyat va iqtisodiy tizimdagi nomutanosibliklar.
2. Iqtisodiy tengsizlik.
3. Mehnat bozoridagi nomutanosiblik
4. Gender stereotiplari va diniy qarashlar.

Ayollar jinoyatchiligining sabablari majmuasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy qiyinchiliklar va oilaviy nizolar ayolni og'ir jismoniy mehnat yoki jinoiy daromad qidirishga majbur qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu determinantlarni bartaraf etish uchun nafaqat huquqiy, balki keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini haqiqiy tenglik tamoyillari asosida mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi.

Ayollar o'rtasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bevosita jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy savodxonlikning pastligi ayollarning nafaqat jinoyat qurboniga aylanishiga, balki o'zlarining ham jinoyat yo'liga kirib qolishlariga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, sohada quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchi. *Tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish.*

Oilalarda ayollarga nisbatan saqlanib qolayotgan tazyiq va zo'rvonlik holatlari ayollar jinoyatchiligining asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada xotin-qizlarning huquqiy madaniyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga nisbatan kuchli "Huquqiy immunitet" shakllantirish zarur. Ayol kishi o'ziga nisbatan qilinayotgan har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatga huquqiy baho bera olishi va o'z huquqlarini himoya qilish mexanizmlaridan foydalanishni bilishi shart.

Ikkinchi. *Targ'ibotning innovatsion va ta'sirchan vositalarini joriy etish.*

Hozirgi globallashuv davrida an'anaviy targ'ibot usullari o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Xotin-qizlarning huquqiy ongini yuksaltirishda innovatsion usullardan, raqamli texnologiyalardan va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan media-mahsulotlardan keng foydalanish lozim. Huquqiy ma'lumotlarni quruq matn shaklida emas, balki aniq hayotiy misollar va vizual kontentlar orqali yetkazish ularning huquqiy qabul qilish darajasini oshiradi.

Uchinchi. *Milliy qadriyatlar va huquqiy normalar uyg'unligi.*

Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining boy tarixi, dini, urf-odatlar va milliy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Xalqimizga xos bo'lgan ayolga ehtirom ko'rsatish an'analarini zamonaviy huquqiy normalar bilan bog'lagan holda targ'ib qilish, huquqiy tarbiyaning ta'sir kuchini ikki baravar oshiradi.

To'rtinchi. *Islohotlarning mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimi.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmunini xotin-qizlarga sodda va tushunarli tilda yetkazish tizimini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, imtiyozli kreditlar,

subsidiyalar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid huquqiy imkoniyatlardan xabardorlik ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash orqali ularni jinoyatdan uzoqlashtiradi.

Bushinchidan. *Jinoyat oqibatlarini tushuntirish va profilaktik chora-tadbirlar.*

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga sabab bo‘lgan omillarni bartaraf etish uchun nafaqat nazariy, balki amaliy-profilaktik tadbirlarni ko‘paytirish lozim. Jinoyat sodir etgan ayollarning keyingi taqdiri, jazoning muqarrarligi va jinoyatning oila sha‘niga ta‘siri kabi huquqiy oqibatlarni aniq misollar bilan tushuntirish "jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati" tamoyilini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va o‘tkazilgan kriminologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki davlat va jamiyatning tizimli, kompleks yondashuvini talab etuvchi strategik jarayondir. Xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish - bu shunchaki ularga qonun normalarini o‘rgatish yoki bilim berish emas, balki ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol, o‘z huquqlarini anglagan va himoyalangan to‘laqonli a‘zosiqa aylantirish demakdir.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlarning samaradorligini ta‘minlash uchun quyidagi xulosaviy jihatlarga e‘tibor qaratish lozim:

birinchidan, xotin-qizlarni barqaror ish o‘rinlari bilan ta‘minlash va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish jinoyatchilik determinantlarini ildizi bilan bartaraf etishning eng samarali vositasidir. Ayol kishining iqtisodiy mustaqilligi uning “yengil daromad” izlash ilinjida firibgarlik, qo‘shmachilik yoki mulkiy jinoyatlar ko‘chasiga kirib qolishining oldini oluvchi asosiy to‘siq hisoblanadi.

Ikkinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirish jarayonida innovatsion targ‘ibot usullaridan foydalanish va milliy qadriyatlarga tayanish muhimdir. Ayol – oilaning ma‘naviy markazi va farzand tarbiyasining asosiy bo‘g‘ini ekanligi inobatga olinsa, uning huquqiy va ijtimoiy barqarorligi bevosita kelajak avlodning jinoyatdan xoli bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu sababli, xotin-qizlarning huquqiy immunitetini shakllantirish orqali biz nafaqat bugungi, balki kelajakdagi jinoyatchilik darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatamiz.

Uchinchidan, oila institutini mustahkamlash va undagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish profilaktikaning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi kerak. Oiladagi mas'uliyat hissini kuchaytirish, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi ma'naviy rishtalarni tiklash, ayniqsa, voyaga yetmagan qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Xorazm viloyati va respublikamizning boshqa hududlarida taklif etilayotgan ushbu kompleks chora-tadbirlarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi ayollar jinoyatchiligini keskin kamaytirishga, jamiyatda "adolat va haqiqat" tamoyillarini qaror toptirishga hamda xotin-qizlarning ijtimoiy nufuzini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Zero, ayolning baxti va xavfsizligi – jamiyat barqarorligining eng oliy mezonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023-y. – URL: <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tayziq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida" gi PF-33-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. – Jinoyat sodir etgan ayollar sonining jinoyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlari. – URL: <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/jinoyat-sodir-etgan-ayollar-sonining-jinoyatlar-tu?lang=uz&format=pdf>.
4. Abdurasulova Q. Kriminologiya: Darslik / Mas'ul muharrir M.R. Rustambayev; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: "Adolat", 2007. – 216 b.
5. G'ofurova D. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi // Scientific Progress. – 2021. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ayollar-tomonidan-sodir-etilgan-jinoyatlarning-kriminalistik-tavsifi> (Murojaat sanasi: 25.04.2026).
6. Hamkorlik – ayollar jinoyatchiligi va uning oldini olish masalalariga qaratildi. – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi rasmiy sayti. – URL:

https://iiv.uz/news/hamkorlik-ayollar-jinoyatchiligi-va-uning-oldini-olish-masala_lariga-qaratildi.